

O‘RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN PSIXOLOGIYA FANIDAN MALAKA TEST SINOVİ TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Psixologiya talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me’yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me’yoriy asoslar

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Psixologiya

1. Psixologiyaga kirish;
2. Muloqot, faoliyat, shaxs;
3. Bilish jarayonlari;
4. Shaxsning hissiy-irodaviy va motivatsion sohasi;
5. Shaxsning individual-psixologik xususiyatlari.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1	Psixologiyaga kirish	Psixologiya fanining predmeti, ta'rifi va psixika haqida tushuncha, psixik qonuniyatlar: psixik jarayonlar, psixik xususiyatlar, psixik holatlar, psixik hodisalar va ularning mazmunini, miya va psixika psixologiya fanining tarixini bilish. Psixika va ong taraqqiyotini, psixikaning yuzaga kelishi va evolyutsiyasi. harakatning instinktiv, individual va intellektual shakllari, inson ongi, tuzilishi, va psixikasining rivojlanishi, ong ta'riflari, ong osti holatlari mohiyatini farqlay olish. Hozirgi zamon psixologiyasining tuzilishi, tarmoqlari, fanlar aro bog'lanishini, psixologiya fanining metodlarini sharhlash va xulosa chiqarish haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.	52 %	21 ta
2	Faoliyat, muloqot, shaxs	Muloqotning shaxs hayotidagi o'rni, muloqotning vositalari, tuzilishi shakllari, shaxs, individ va individuallik, shaxsning tuzilishi, motiv, motivatsiya tushunchasi, shaxsning qiziqishlari, dunyoqarashi va e'tiqodlarini bilish. O'yin, ta'lim, mehnat faoliyatlari va ularning psixologik mohiyati tahlil qilish haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.	30 %	12 ta
3	Bilish jarayonlari	Diqqat, sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol, nutq haqida umumiy tushunchalarni, tuzilishi, turlari, xususiyatlari, sifatlarini bilish, pedagogik faoliyatda qo'llay olish ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.	5 %	2 ta
4	Shaxsning hissiy-irodaviy va motivatsion sohasi	His-tuyg'ular va iroda haqida tushuncha, nerv-fiziologik asoslari, hissiyotning namoyon bo'lish shakllari, agressiya holatlari, ma'naviy, intellektual, estetik, praksik hislarning inson faoliyati va hayotidagi ahamiyati, tavakkalchilik, shaxsning irodaviy sifatleri, holatlari, turlarini farqlay olish haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	5 %	2 ta
5	Shaxsning individual-psixologik xususiyatlari	Temperament, xarakter, qobiliyatlar haqida umumiy tushuncha, shaxsning hayoti va faoliyatidagi o'rni haqida bilish. Temperament tiplarining tavsifi, oliy nerv faoliyati va	8 %	3 ta

		temperament tiplari, xarakterda munosabatning ifodalanishi, qobiliyat va faoliyat, layoqat nishonalari va uning turlari, qobiliyatlarning rivojlanib borishi, qobiliyatlarning turlari: umumiy va maxsus qobiliyatlar, iste'dod va iqtidorlilik, talant va daholik haqida bilish va ularning psixologik mohiyati tahlil qilish ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.		
--	--	--	--	--

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	15%
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	65%
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20%

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarni topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test variantini yechish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. F.I.Haydarov, N.I.Halilova Umumiy psixologiya. Toshkent-2017 yil
2. E.G'oziyev. "Psixologiya" Darslik. "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2008.
3. V.M.Karimova Psixologiya Toshkent-2002
4. S.X.Jalilova, S.M.Aripova. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent-Faylasuflar-2013, 2017.